RENESSANS DAVRLARI NAMOYONDALARINING DUNYO TAMADDUNI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASLARI

Salayeva Muborak Saburovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrasi professori v.b.,
Shayunusova Feruza Saxidovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim" fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dunyo madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shgan Renessans davrlari va ularning asoschilari hamda hozirgi kunda yangi O'zbekistonda boshlangan Uchinchi Renessans harakatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, Renessans, milliy g'oya, ta'lim-tarbiya, bilim va ko'nikma.

ВКЛАД ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ В РАЗВИТИЕ МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Салаева Муборак Сабуровна
и.о. профессор кафедры «Педагогики начального образования», Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами
Шаюнусова Феруза Сахидовна
студентка 2 курса факультета «Начального образования», ТГПУ имени Низами

Аннотация: В данной статье описываются периоды Возрождения и их основатели, внесшие вклад в развитие мировой культуры, а также движения Третьего Возрождения, начавшиеся в новом Узбекистане.

Ключевые слова: зрелое поколение, Возрождение, национальная идея, образование, знания и навыки.

THE CONTRIBUTION OF THE RENAISSANCE TO THE DEVELOPMENT OF THE WORLD CIVILIZATION

Salaeva Muborak Saburovna
Acting Professor of the Department of "Pedagogy of Primary Education", Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
Shayunusova Feruza Saxidovna
2nd year student, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: This article describes the Renaissance periods and their founders that contributed to the development of world culture, as well as the Third Renaissance movements that have begun in new Uzbekistan.

Key words: mature generation, Renaissance, national idea, education, knowledge and skills.

KIRISH: So'nggi vaqtlarda yurtimizda Uchinchi Renessans atamasi kun mavzusiga aylangan. Xo'sh, bu qanday amalga oshiriladi? Mamlakatimizda birinchi va ikkinchi Renessans qachon bo'lgan edi? Uchinchi renessans bizaga nima uchun kerak? Uchinchi Renassans avlodlari qanday bo'lishi kerak?

Birinchi Renessans IX-XI asrlarda ro'y bergan. Ushbu ulkan yuksalishning sodir bo'lishining o'z tarixiy sabablari bor, albatta. Davlat yuritishdagi va siyosatdagi yangiliklar ilm-fan kishilarini ezgu g'oyalar tevaragida birlashtirdi, turli-tuman fanlarga, ayniqsa matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geodeziyaga qiziqish kuchaydi va dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan o'sha davrda asos solindi [2].

Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajdodlarimiz serqirra iste'dod sohiblari bo'lishlari bilan bir qatorda, o'z fanlari bo'yicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Ma'mun akademiyasidir. Daho mutafakkirlarni o'z bag'riga to'plagan bu oliy dargoh nafaqat o'z mintaqasi, balki butun dunyo uchun akselerator vazifasini o'tagani haqiqat [3].

Ikkinchi Renessans nafaqat mintaqamizda, balki juda katta jo'g'rofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirgan ulug' bobomiz, sohibqiron Amir Temur nomi bilan chambarchas bog'liq. U zot tufayli qudratli markaziy boshqaruvga asoslangan davlat va yangi madaniy-ilmiy yuksalish uchun qulay vaziyat yuzaga keldi. Amir Temur o'z bepoyon saltanatining katta shaharlariga turli hududlardagi iste'dodli olimlar, shoirlar, hunarmandlar, me'morlarni jamladi va ilmi-fan taraqqiyoti uchun kerakli barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bunday oqilona siyosat mamlakatning ilmiy va madaniy qudratini kuchaytirdi.

Ikkinchi Renessans davri "Islom madaniyatining oltin asri" deb atalishi bilan birga, fazo ilmi va matematika fanlarining rivojlanishi bilan yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar, Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy,

Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Birinchi Renessans davrida bo'lgani kabi, bu davrda ham ilm o'rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladilar [4].

Uchinchi Renessans yaratish bir yoki ikki kishining ishi emas. Uni barpo etish uchun mamlakatning har bir vakili — xoh yosh bo'lsin, xoh katta — barcha barobar harakat qilmog'i lozim. Renessans yaratishga ishonish bilan birga, qattiq harakat ham qilish shart. Bu ham oson kechadigan jarayon emas. Chunki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun dastlab ma'naviyatli insonlar qatlamini shakllantirish kerak. Bunday insonlarda tafakkur hissiy ongdan ustun keladi, inson o'zini o'zi idora qila oladi. Ma'naviyat insonni ongli yashash va olijanob xislatlarga chorlaydigan noyob faoliyatdir. Uni yuksaltirish masalasi esa, ko'proq insonning o'ziga va unga ta'sir o'tkazadigan muhitga bog'liq [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Davlatimiz rahbari nutqidagi "Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz" degan so'zlari yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tub islohotlardan ko'zlangan ulug' maqsadlarni ifoda etadi. "Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladilar. Va bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar" degan e'tirofi esa, "davlat-ta'lim-o'quvchi va ota-ona" halqalarini qat'iy bir tizimga mustahkamladi va juda ulug' maqsadga erishishning ishonchli yo'lini ko'rsatib berdi [1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag'ishlangan bayram tabrigida ***"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi"***, degan g'oya asosida umummilliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko'rilmagan e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot, sport sohalarini rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarning, ayniqsa, qizlarimizning iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish borasida ham ko'p ishlar qilinmoqda. Bularning barchasi yurtimizda ***Uchinchi Renessans***– milliy taraqqiyotimizning yangi davri poydevorini yaratishga xizmat qiladi", – deya ta'kidladilar.

Shunday ekan bunday jannatmakon o'lkamizda barcha shart-sharoitlar mujassam yurtda uchunchi renessans davri allaqachon kelganini ko'rishimiz mumkin. Xo'sh

yurtimizda yaratilayotgan bunday imkoniyatlarga yoshlarning javobi qanday bo'lyabdi? Uchinchi renessans avlodlari qanday o'sib unmoqdalar? "Barkamol avlodni" rivojida biz kattalarning o'rni qanday?

NATIJALAR VA MUHOKAMA: Shuni aytish kerakki, boshlang'ich ta'lim inson hayotida birinchi ijtimoiy bosqichdir. Chunki boshlang'ich ta'lim bolaning yoshligidanoq ularning ongi, idroki, irodasi, sezgisiga yo'nalish beradi. Kattalarning g'amxo'rligida bola o'z hayotiy tajribasini to'plab boradi, o'zini o'rab turgan atrof-muhit orqali ilk oddiy tushunchalarga hamda hayotiy misollar asosida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib boradi. O'quvchilarni ijodiy faoliyatini shakllantirishda quydagilaga e'tibor berishi lozim [6]:

- o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq bayon eta olishi, fikrini isbotlay olishi, boshkalarni eshita olishi va fikriga ko'ndira olishi;
- o'ziga nisbatan talabchan va kamchiliklari ustida ishlay olishi;
- bilim olishga ehtiyoj sezish va olgan bilimlarini namoyon qila olishi;
- dars va darsdan boshqa jarayonlarda olgan bilimlarini hayotiga kulay olishidan iboratdir.

Bundan kelib chikadi-ki, inson hayotida olgan bilim va ko'nikmalarini aniq dalillar asosida mustaqil fikrlab, mantiqiy uylashni shakllantirishni rivojlantirish zarur.

Shu o'rinda men e'tiborni ajdodlarimizning hayot yo'llariga qaratgim keladi. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy yoshligidan ilm o'rganishga, kitobga mehr qo'ygan. Tinimsiz mutolalar sabab, u yigirma sakkiz yoshida mukammal bilimlar egasi, mutafakkir, el-yurtga tanilgan shoir va tajribali, insonparvar davlat arbobi darajasiga erisha olgan.

Dunyo xalqlarini o'z ilmi bilan hayratga solgan Abu Ali ibn Sino o'n olti yoshidayoq Qur'oni Karimni yoddan bilgan va tibbiyot ilmiga ixlos qo'yib, tabib maqomini olgan. Bu kabi insonlar navqironlik davrining qadriga yetib, fursatni g'animat bilib, uni bilim va hunar o'rganish uchun sarflaganlar. Shuning uchun olamshumul darajadagi fozillar qatoridan o'rin olganlar.

Shu o'rinda yurtimizning ilm-fan va innovatsion faoliyat tizimi Uchinchi Renessansga tayyormi, degan tabiiy savol tug'iladi. Bu borada quyidagi qator omillarni keltirish mumkin.

Avvalo, ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiyalarni iqtisodimiz va ijtimoiy hayotga joriy etish uchun normativ-huquqiy baza yaratildi. Yurtimiz tarixida ilk bor "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida hamda «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi Qonunlar Prezidentimiz tomonidan imzolandi. Mazkur sohalarni tartibga soluvchi qonun osti hujjatlari tayyorlandi. Bundan tashqari, davlatimiz tomonidan olimlarning mavqei, obro'yi oshirildi, akademik legitimligi oshirildi. Ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berildi.

Shuningdek, ilmiy-innovatsion faoliyatning infratuzilmasini mustahkamlash choralari ko’rildi. Prezidentimiz Qarori bilan maxsus dastur qabul qilindi. Bu dastur doirasida 40 dan oshiq ilmiy tashkilotlarga ilmiy asbob-uskunalarni xarid qilish uchun 32 million AQSh dollari, ularning bino va inshootlarini kapital ta’mirlash uchun 119 mlrd. so’m miqdorida mablag’lar yo’naltirilib, bunda barcha asbob-uskunalar parkini yangilash bo’yicha chora-tadbirlar ko’rilmoqda.

Ilmiy faoliyat bilan shug’ullanuvchi ilmiy darajasi bor kadrlarni har tomonlama qo’llab quvvatlash, nufuzli ilmiy yo’nalishlar bo’yicha ilmiy maktablar yaratishga qaratilgan kompleks choralar ko’rildi. 2018 yildan buyon oylik va mutaxassislarning oylik ish haqlari o’rtacha 2,5 baravar oshdi. Bundan tashqari, ilmiy faoliyatga moliyaviy xarajatlar esa 3,5 baravarga o’sdi. Har bir olimga o’zining yo’nalishi bo’yicha ilmiy faoliyatida natija ko’rsatsa, ushbu natijalarni mukofotlash bilan bog’liq tizim yaratildi. Fan nomzodlariga oylik ish haqiga 30 foizgacha, fan doktorlariga 60 foizgacha miqdorida ustamalar belgilandi. Bu olimlarimizning yangiliklar yaratish, ilmiy natijalarini tegishli sohalarga joriy etish, amaliyotga tatbiq qilish ko’lamini oshirishlariga rag’bat berdi.

Joizki, Uchinchi Renessansni yaratadigan avlodni voyaga etkazishga bor kuchimiz va imkoniyatlarimizni bir yoqadan bosh chiqarib safarbar etishimiz darkor [7]. Chunki bizning yoshlarimizda buyuk ota-bobolarimizning qoni oqmoqda, ajdodlarimiz yaratgan Birinchi va Ikkinchi Renassans davrlarini biz davom etirishimizga xaqlidirmiz. Shunday ekan, bizdan faqat mehnat va ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish talab qilinadi.

Xulosa o’rnida shuni aytmoqchimanki Uchinchi Renessansni bir yilda, besh yilda, o’n yilda amalga oshiramiz, deb bong urmaymiz, lekin mana shu Renessansni yaratadigan avlodni voyaga etkazishga kuchimiz ham, qudratimiz ham, imkoniyatimiz ham etarli. Bizning yoshlarimizda buyuk ota bobolarimizning qoni oqmoqda, Ajdodlarimiz yaratgan birinchi va ikkinchi renassansni biz davom etirishimizga xaqlidirmiz. Shunday ekan, bizdan faqat mehnat va ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov I**.** Birinchi va ikkinchi renessans buyuk daholar davri O’zbekistonda Uchinchi renessans poydevori bormi? https://fayllar.org/birinchi-va-ikkinchi-renessans-buyuk-daholar-davri-ozbekistond.html

2. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o’rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА в XXI ВЕКЕ». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск No 24 (том 4) (март, 2022). -С.751-754.

https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdfhttps://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf

3. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, November 1). Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar kelajagiga yuksak e'tibor // PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS, Australia, Melbourne. https://doi.org/10.5281/zenodo.7269286

4. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, October 11). Development of high-quality human capital is an important factor of society's development / Yuqori sifatli inson kapitalini rivojlantirish jamiyat tarraqqiyotining muhim omili sifatida // *Innovative development in the global science*, Boston, USA. https://doi.org/10.5281/zenodo.7184486

5. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari. ACADEMIC RESEARCH JOURNAL, 1(5), 9–14. https://doi.org/10.5281/zenodo.7227181

6. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kognitiv mobilligini xalqaro dasturlar asosida baholanishning o'ziga xos jihatlari / "Халқ таълими тизимидаги тегишли раҳбарлик лавозимларига муносиб ходимларни жой-жойига қўйишнинг долзарб масалалари" мавзусида онлайн конференция. Авлоний номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти. -Т.: 2022. –Б.64-71.

7. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. Yangi O'zbekiston sharoitida Uchinchi Renessansga mos barkamol avlodni shakllantirish muammolari / "XXI аср шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар" мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь. –Б.140-141.